



O'ZBEK GAZETACHILIGIDA INFOGRAFIKA: MA'LUMOTNI VIZUALIZATSIYA QILISHNING KUCHLI QUROLI

Hasanjonova Muxlisaxon Hasanjon qizi

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,

Jurnalistika fakulteti 1-bosqich talabasi

E-mail: muxlisaxonhasanjonova7@gmail.com

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0003-9461-4459>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek gazetachiligida infografikaning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy jurnalistikadagi o'rni tahlil qilinadi. Uning axborotni vizualizatsiya qilishdagi kommunikativ imkoniyatlari, murakkab statistik va ijtimoiy ma'lumotlarni ommaga tushunarli yetkazishdagi samaradorligi ochib beriladi. Shuningdek, bosma va onlayn nashrlarda infografikadan foydalanish tajribalari, interaktiv vizualizatsiya usullarining auditoriya ongiga ta'siri hamda o'zbek media makonida info-dizayn rivojiga to'sqinlik qilayotgan muammolar yoritiladi. Shu bilan birgalikda, infografikaning zamonaviy jurnalistikada mustaqil janr sifatidagi ahamiyati va uning kelajakdagi istiqbollari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: infografika, vizual jurnalistika, ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish, ommaviy axborot vositalari, raqamli media, interaktiv grafikalar, o'zbek gazetachiligi, auditoriya tafakkuri.

Аннотация: В данной статье анализируются процессы формирования и развития инфографики в узбекской журналистике, а также её роль в современной медиасреде. Рассматриваются коммуникативные возможности инфографики в визуализации информации, её эффективность в представлении сложных статистических, экономических и социальных данных в доступной для широкой аудитории форме. Особое внимание уделяется практике использования инфографики в печатных и онлайн-изданиях, влиянию интерактивных визуальных форм на общественное восприятие информации, а также существующим проблемам и перспективам развития визуальной журналистики в Узбекистане. Обосновывается значение инфографики как самостоятельного жанра современной журналистики.

Ключевые слова: инфоградика, визуальная журналистика, визуализация данных, средства массовой информации, цифровые медиа, интерактивная графика, узбекская пресса, общественное восприятие.

Abstract: This article examines the formation and development of infographics in Uzbek journalism and analyzes its role in the contemporary media environment. It explores the communicative potential of infographics as an effective tool for visualizing complex statistical, economic, and social data in a clear and accessible manner for a broad audience. The study also highlights the use of infographics in print and online media, the impact of interactive visualizations on audience engagement and critical thinking, as well as the challenges and future





prospects of visual journalism in Uzbekistan. In addition, article above substantiates the significance of infographics as an independent genre within modern journalism.

Keywords: infographics, visual journalism, data visualization, mass media, digital media, interactive graphics, Uzbek journalism, audience engagement.

Kirish

Axborot qanchalik ko'paysa, uni tushunish shunchalik murakkablashadi. Hozirgi zamonda insoniyat ongiga eng katta yukni sonlar, statistikalar va rasmiy ma'lumotlar yuklamoqda. Aynan shunday pallada jurnalistika faqat axborotni yetkazuvchi emas, balki uni xalqqa anglatib beruvchi kuchga ega bo'lishi kerak. Shu ma'noda infografika zamonaviy gazetachilikning eng samarali va ta'sirchan vositalaridan biri sifatida maydonga chiqdi. Tarixga nazar tashlasak, 1854-yilgi Qrim urushi paytida britaniyalik hamshira Florens Naytingel tomonidan yaratilgan mashhur "rouz diyigramm", ya'ni "gul shaklidagi diagramma" birgina grafik orqali minglab bemorlarning hayotini saqlab qolganini ko'ramiz. U urush maydonidagi o'limlarning asosiy sababi qonli janglar emas, balki shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik va xilma-xil yuqumli kasalliklar ekanini alohida ta'kidlab, ularni rang va shakllar vositasida o'zgacha qobiliyat bilan ko'rsatib berdi. Bu voqea infografikaning ma'lumotlar vizual shaklga kirganda, ular shunchaki o'qilmasligini, balki his qilinishi, tushunilishi va jamiyatni o'zgartirishga qodir bo'la olishining haqiqiy qudratini namoyon qildi. Bugungi o'zbek gazetachiligi ham aynan shu yo'ldan bormoqda, ya'ni murakkab iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni oddiy o'quvchiga yaqinlashtirish uchun infografikadan samarali foydalanmoqda.

Materiallar va usullar.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston mediasining rivoji bilan birga infografikaning o'рни va ahamiyati ham ortib bordi. Dastlab 1990-yillarda bosma nashrlarda sodda jadval va sxemalar ko'rinishida paydo bo'lgan vizual elementlar vaqt o'tishi bilan mukammallashdi. 2000-yillarda internetning ommalashuvi va 2010-yillarda raqamli jurnalistikaning jadal rivoji infografikani yangi bosqichga olib chiqdi. Inson miyasi tasvirni matnga nisbatan juda tez qabul qilishi ilmiy jihatdan isbotlangan, shu sababli infografika bugungi auditoriya uchun eng qulay axborot shakliga aylandi. O'zbek matbuotida, xususan, iqtisodiy yo'nalishdagi nashrlarda bu tendensiya yaqqol seziladi. Masalan, "Biznes Daily Birja" gazetasi o'z sahifalarini deyarli to'liq grafik materiallar bilan boyitib, birja ko'rsatkichlari, xususiylashtirish jarayonlari va elektron auksion natijalarini oddiy va tushunarli ko'rinishda taqdim etmoqda. Bu yondashuv faqatgina ma'lumotni tez yetkazibgina qolmasdan, gazetxonni chuqur tahlil olamiga sho'ng'ishgaga ham undaydi.

Shuningdek, onlayn media maydonida infografikaning roli yanada kengaygani hech kimga sir emas. Kun.uz, Daryo.uz, Review.uz kabi internet platformalari infografikani faqat bezak sifatida emas, balki mustaqil jurnalistik janr darajasiga olib chiqdi. Ular orqali aholining turmush darajasi, savdo aloqalari, soliq tushumlari, ijtimoiy muammolar va hatto global qiziqarli faktlar keng auditoriyaga yetkazilmoqda. Bunday vizual materiallar sonlarni jonlantiradi, statistikani hikoyaga aylantiradi va o'quvchini faqat tomoshabin emas, balki fikrlovchi shaxsga aylantiradi. Ayniqsa, interaktiv infografikalar bu jarayonda muhim o'rin tutadi,





sababi gazetxon ma'lumotlarni solishtiradi, filtrlab ko'radi va xulosani o'zi chiqaradi. Bu esa jurnalistikaning asosiy vazifalaridan biri bo'lgan tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga tamal toshi bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, rasmiy axborot manbalarida ham infografika tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Prezident.uz, Stat.uz va Uza.uz singari axborot saytlarida davlat siyosati, demografik o'zgarishlar va iqtisodiy rivojlanish grafikalar orqali yoritilmoqda. Bu yondashuv davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqot masofasini qisqartiradi, chunki murakkab rasmiy hujjatlar o'rnini oddiy va tushunarli vizual axborot egallaydi. Jumladan, pandemiya davrida infografikalar aholini ogohlantirish va xabardor qilishda muhim rol o'ynadi, bu esa ularning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshirdi. Shu bilan birga, o'zbek gazetachiligida infografikaning taraqqiy etish jarayonida bir qancha muammolar ham shubhasiz, yo'q emas.

Misol uchun, malakali grafik dizaynerlar va vizual jurnalistlar yetishmasligi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi, eski shablonlardan foydalanish sifatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Natijalar va muhokama

Bosma nashrlar texnik imkoniyatlar sabab statik grafikalar bilan cheklanib qolayotgan bo'lsa, onlayn media hali hamon interaktiv va sun'iy intellekt asosidagi vizualizatsiya qulayliklaridan to'liq foydalana olmayapti. Biroq so'nggi yillarda bu borada ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan tashkil etilgan trening va seminarlar jurnalistlarning infografika yaratish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, infografika o'zbek jurnalistikasining ajralmas qismiga aylanishi shubhasiz. Sun'iy intellekt, interaktiv dashboardlar, uch o'lchamli grafikalar va virtual reallik elementlari yaqin yillarda media makoniga kirib kelishi kutilmoqda. Bu esa gazetachilikni yanada shaffof, ta'sirchan va auditoriyaga yaqin qiladi. Infografika endi shunchaki ma'lumotni bezash vositasi emas, balki tafakkurni shakllantiruvchi, jamiyatni o'ylashga undovchi kuchdir. Mashhur dizayner Paul Rand aytganidek, "Dizayn bu fikrning vizual ko'rinishidir". Bugungi o'zbek gazetachiligida infografika aynan shu vazifani bajarmoqda: haqiqatni ko'rsatmoqda, jamiyatni xabardor qilmoqda va kelajak sari yetaklamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar (ARA)

1. Cairo, A. (2016). The truthful art: Data, charts, and maps for communication. Berkeley, CA: New Riders.
2. Rasulov, A. (2022). Raqamli jurnalistikada infografikaning kommunikativ ahamiyati (O'zbekiston OAV misolida). Media va Jamiyat, 2(1), 61–67.
3. Few, S. (2012). Show me the numbers: Designing tables and graphs to enlighten. Burlingame, CA: Analytics Press.
4. Tufte, E. R. (2001). The visual display of quantitative information (2nd ed.). Cheshire, CT: Graphics Press.
5. Tufte, E. R. (2006). Beautiful evidence. Cheshire, CT: Graphics Press.
6. Kirk, A. (2016). Data visualisation: A handbook for data driven design. London, UK: SAGE Publications.
7. McCandless, D. (2014). Knowledge is beautiful. London, UK: Collins.





8. Evergreen, S. D. H. (2017). Effective data visualization: The right chart for the right data. Thousand Oaks, CA: SAGE Publications.
9. Inoyatov, J. (2024). Turkiston o'lkasida vizual axborot va dastlabki grafik tasvirlarning matbuotdagi o'rni. O'zMU xabarlari (Acta NUUz), 1(7), 45–50.
10. Friendly, M., & Wainer, H. (2021). A history of data visualization and graphic communication. Cambridge, MA: Harvard University Press.
11. Few, S. (2018). Now you see it: Simple visualization techniques for quantitative analysis. Oakland, CA: Analytics Press.
12. Sobitova, G. A. (2023). O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida vizual kommunikatsiyaning rivojlanish bosqichlari. Journal of Social and Humanitarian Studies, 4(2), 88–94.

